



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 5 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>Kalenov K.T.</i>	22

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI

Erkaboyev Yorbek Boirbekovich

Toshket davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi
Email: yorbekerkaboyev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada polyutsiya sug'urtasining iqtisodiy va ekologik mohiyati, uning xalqaro amaliyotdagi qo'llanilishi hamda O'zbekistonda joriy etish zarurati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Polyutsiya sug'urtasi atrof-muhitni ifloslantirish bilan bog'liq xatarlar va moddiy yo'qotishlarni sug'urta orqali qoplashni ta'minlovchi muhim moliyaviy vosita sifatida ko'rib chiqilgan.

Maqolada jahon tajribasidagi amaliyotlar — xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi davlatlardagi ekologik javobgarlik sug'urtasi tizimlari tahlil qilingan hamda ularning huquqiy va institutsional asoslari o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston sug'urta bozorida mavjud holat, ekologik xatarlarni baholash tizimining rivojlanmaganligi va tegishli huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi asosiy to'siqlar sifatida aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatda polyutsiya sug'urtasini joriy etish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amalga oshirish uchun muhim omil ekanligi ilmiy asoslangan. Muallif tomonidan O'zbekiston sharoitida polyutsiya sug'urtasi tizimini shakllantirish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy yo'nalishlarda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: polyutsiya sug'urtasi, ekologik xatar, atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, ekologik javobgarlik, barqaror rivojlanish, sug'urta bozori.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the economic and environmental nature of pollution insurance, its application in international practice, and the need for its implementation in Uzbekistan. Pollution insurance is viewed as an important financial instrument providing coverage for risks and material losses associated with environmental pollution.

The article analyzes global practices, particularly environmental liability insurance systems in countries such as the United States, the European Union, and Japan, and examines their legal and institutional foundations. The current situation in the insurance market in Uzbekistan, the underdeveloped environmental risk assessment system, and the lack of appropriate legal mechanisms are identified as key obstacles.

The study provides scientific evidence that the introduction of pollution insurance in the country is an important factor in ensuring sustainable economic development, supporting public environmental policy, and implementing the principles of a "green economy." The author has developed practical proposals and recommendations in the legal, institutional, and financial spheres for developing a pollution insurance system in Uzbekistan.

Keywords: Pollution insurance, environmental risk, environmental protection, green economy, environmental responsibility, sustainable development, insurance market.

Абстрактный: В данной статье научно анализируются экономическая и экологическая сущность страхования от загрязнения, его применение в международной практике и необходимость его внедрения в Узбекистане. Страхование от загрязнения рассматривается как важный финансовый инструмент, обеспечивающий страховое покрытие рисков и материальных убытков, связанных с загрязнением окружающей среды.

В статье анализируется мировая практика, в частности, системы страхования экологической ответственности в таких странах, как США, Европейский Союз и Япония, и исследуются их правовые и институциональные основы. При этом в качестве основных препятствий выделяются текущая ситуация на страховом рынке Узбекистана, неразвитость системы оценки экологических рисков и отсутствие соответствующих правовых механизмов.

По результатам исследования научно обосновано, что внедрение страхования от загрязнения в стране является важным фактором обеспечения устойчивого экономического развития, поддержки государственной политики в области охраны окружающей среды и реализации принципов «зеленой экономики». Автором разработаны практические предложения и рекомендации в правовой, институциональной и финансовой сферах по формированию системы страхования от загрязнения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: страхование от загрязнения, экологический риск, охрана окружающей среды, зеленая экономика, экологическая ответственность, устойчивое развитие, страховой рынок.

Kirish (Introduction/Vvedenie).

So'nggi yillarda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat sivilizatsiyasi barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, iqlim o'zgarishi kabi jarayonlar nafaqat tabiiy muhit, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat davlatlardan tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat, ekologik siyosatni kuchaytirish hamda iqtisodiy faoliyatda barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik xatarlarni boshqarishning zamonaviy vositalaridan biri — polyutsiya sug'urtasi (pollution insurance) hisoblanadi. Ushbu sug'urta turi tabiatning ifloslanishi yoki falokatlar natijasida yuzaga keladigan moddiy va moliyaviy zararlarni qoplashga xizmat qiladi. YA'ni polyutsiya sug'urtasi faqat iqtisodiy vosita emas, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda u davlatning ekologik siyosatining

ajralmas qismi sifatida amal qiladi va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy javobgarlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda polyutsiya sug'urtasi atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik bilan chambarchas bog'langan. Masalan, AQSHdagi Comprehensive Environmental Response, Compensation, and Liability Act (CERCLA), Yevropa Ittifoqidagi Environmental Liability Directive, Yaponiya va Koreya Respublikasidagi maxsus ekologik javobgarlik tizimlari orqali polyutsiya xatarlari uchun majburiy yoki ixtiyoriy sug'urta turlari joriy qilingan. Bu tajribalar korxonalarni tabiatni ifloslantirish uchun iqtisodiy javobgar etish bilan birga, ekologik tavakkalchilikni moliyaviy vositalar orqali boshqarish imkonini bermogda. [10]

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot", "barqaror rivojlanish", "ekologik xavfsizlik" kabi tushunchalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentning 2019 yil 4 oktabrdagi PF-4477-sonli Farmoni bilan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mamlakatda ekologik samaradorlikni

o'shish va iqtisodiy faoliyatni barqaror rivojlanish asosida yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Biroq, amalda ekologik xatarlarni moliyaviy jihatdan sug'urtalash tizimi, jumladan polyutsiya sug'urtasi, hali yetarli darajada shakllanmagan. [1]

Hozirgi kunda sug'urta bozorida asosiy e'tibor mulk, avtotransport, tibbiy va hayot sug'urtasi kabi an'anaviy turlarga qaratilgan bo'lib, ekologik tavakkalchilikni sug'urtalash tizimi amalda mavjud emas. Bu esa sanoat va energetika korxonalarini faoliyatidagi ehtimoliy ekologik zararlarni uchun moliyaviy himoyaning yo'qligiga olib kelmoqda. Shu sababli, O'zbekistonda polyutsiya sug'urtasini joriy etish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki milliy sug'urta bozorini rivojlantirish va xalqaro ekologik standartlarga moslashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — polyutsiya sug'urtasining iqtisodiy va ekologik mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash, uning xalqaro tajribasini tahlil qilish hamda O'zbekistonda joriy etish imkoniyatlarini va mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda maqolada mavjud ilmiy–nazariy yondashuvlar, xorijiy tajribalar, milliy qonunchilik tahlili va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Ushbu adabiyotlar tahlilidan polyutsiya sug'urtasi konsepsiyalarini tadqiq qilish, ularning xalqaro va mintaqaviy tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitidagi mavjud imkoniyatlar, qonunchilik hujjatlarini va loyiha materiallarini asosida izohlash maqsad qilingan. Tahlil uchun quyidagi turdagi manbalardan foydalanildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni №PF-4477, Ekologik barqaror rivojlanish va yashil moliya siyosati asoslarini belgilaydi. Sug'urta tizimida ekologik xatarlarni boshqarish zarurligi ta'kidlangan.

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development), Ekologik javobgarlik va sug'urta tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi hamda polyutsiya sug'urtasi iqtisodiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashi tahlil qilingan.

Karimov A. Ekologik xavflarni boshqarish va sug'urta bozorining holati tahlil qilingan hamda polyutsiya sug'urtasini joriy qilish zarurati ilmiy asoslangan.

UNDP Uzbekistan, O'zbekistonda iqlim barqarorligi va ekologik siyosat tahlili hamda sug'urta ekotizimini muhofaza qilishda muhim moliyaviy vosita sifatida ko'rsatilgan.

Qodirov I., "O'zbekistonda iqlim xavflarini sug'urtalashning huquqiy asoslari", sug'urta va huquq, sug'urta tizimini iqlim xavflariga moslashtirish milliy qonunchilikni takomillashtirishni talab qilish masalalari.

Murtazayev A., "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlarning o'ri", O'zbekistonda yashil moliya, karbon bozori uchun moliyaviy institutlar (bank, sug'urta) ishtiroki muhim.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2024– yil yakuni bo'yicha yillik hisobot. Yashil iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi Mualliflar: Shoxzod Islamov, Abdujalil Maxmudov, Toshkent 2025 yil. Dekarbonizatsiya bo'yicha uzoq muddatli strategiya (LTS) – bu mamlakatning kelgusi o'nlab yillar davomida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish bo'yicha rejasini belgilovchi hujjatdir. [2]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/ Metodi).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Analiz).

Polyutsiya sug'urtasi (pollution insurance) atrof–muhitni ifloslantirish natijasida yuzaga kelgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashga qaratilgan sug'urta turi bo'lib, u ekologik javobgarlik sug'urtasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur sug'urta turi korxonalar va ishlab chiqarish subyektlarining faoliyati natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni moliyaviy bartaraf etish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda polyutsiya sug'urtasi nafaqat ifloslanish holatlarida zararni qoplash uchun, balki profilaktik choralar va xatarlarni kamaytirish mexanizmlarini moliyalashtirishda ham faol qo'llaniladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2004/35/YES–sonli "Environmental Liability Directive" hujjatiga ko'ra, ifloslantiruvchi shaxs "Polluter Pays Principle" (Ifloslantiruvchi to'laydi) tamoyili asosida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bu esa sug'urta vositasini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.[3]

Global polyutsiya sug'urta bozorini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'yida jadvalda ko'rishimiz mumkin:

1-jadval.

Dunyoda polyutsiya sug'urtasi xizmatlarining asosiy bozorlar bo'yicha taqsimoti

Davlatlar	Ulushi (%)
AQSH	35
Yevropa Ittifoqi	30
Yaponiya	10
Xitoy	15
Boshqa davlatlar	10

Jadval shuni ko'rsatadiki, polyutsiya sug'urtasi asosan rivojlangan mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan. Bu holat O'zbekiston uchun hali katta salohiyatli bozor mavjudligini anglatadi.

O'zbekiston sharoitida mazkur sug'urta turi hali amalda joriy etilmagan bo'lsa–da, uning huquqiy zaminini "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (PF-4477, 2019 yil) va "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun orqali shakllantirilmog'da. Bu hujjatlarda atrof–muhitni muhofaza qilish va ekologik xatarlarni moliyaviy boshqarishning zamonaviy instrumentlarini joriy qilish zarurligi qayd etilgan. [1]


Yuqoridagi qarorlarni qabul qilishga sabab bo'lgan omillar sifatida so'nggi o'n yildagi asosiy ekologik ifloslanish holatlar (misol uchun — suv, havo, tuproq bo'yicha aniqlangan zarar holatlari soni) ni ko'rsatishimiz mumkin:



Tendensiya ifloslanish holatlari yil sayin ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu O'zbekistonda polyutsiya sug'urtasi tizimini joriy etish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Natijada ekologik zararlarni natijasida iqtisodiy yo'qotish holatlari xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat budjeti xarajatlarining bosimi

Ekologik zarar natijasida iqtisodiy yo'qotishlar (mlrd so'm)



ortish holatlari kuzatilgan.

Qo'yida ekologik zararlarning iqtisodiy yo'qotishlarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin:

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ekologik zararlarning iqtisodiy ta'siri tez sur'atda o'sib bormog'da. Agar polyutsiya sug'urtasi tizimi joriy etilsa, bu yo'qotishlarning katta qismi sug'urta to'lovlari orqali qoplanishi mumkin bo'ladi.

Jahon amaliyotida polyutsiya sug'urtasi qator davlatlarda davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlantirilgan bo'lib, bunga qo'yidagi davlatlarni misol keltirishimiz mumkin:

1. AQShda "Comprehensive Environmental Response, Compensation, and Liability Act (CERCLA)" doirasida ifloslanish holatlarida javobgarlik sug'urtasi majburiy hisoblanadi. Korxonalar ekologik xavf darajasiga qarab sug'urta to'lovlari amalga oshiriladi.

2. Yaponiyada 1970–yillardagi sanoat ifloslanishi inqirozidan keyin maxsus "Pollution Compensation Fund" tashkil etilgan bo'lib, u sug'urta kompaniyalari va davlat tomonidan moliyalashtiriladi. [7]

Bu modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, polyutsiya sug'urtasi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatning ekologik

mas'uliyatini oshiradi. Shu nuqta nazardan, O'zbekistonda ham ushbu sug'urta turini joriy etishda xalqaro tajribalarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. 2024 yil holatiga ko'ra, mamlakatda 35 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda, ammo ularning faoliyati asosan avtotransport, sog'liqni saqlash va mulk sug'urtasiga yo'naltirilgan. Ekologik va polyutsiya sug'urtasi kabi innovatsion sug'urta turlari hozircha yo'q. Bu sug'urta turining amaliyotda mavjud emasligini quyidagi muammolar bilan izohlashimiz mumkin:

1. Huquqiy mexanizmlar yetishmasligi. "Ekologik javobgarlik to'g'risida"gi maxsus qonun hali qabul qilinmagan.

2. Ekologik ma'lumotlar bazasi yo'qligi. Ifloslanish holatlari va ularning iqtisodiy ta'siri bo'yicha ma'lumotlar to'liq emas.

3. Sug'urta kompaniyalar tajribasi yetarli emasligi. Ekologik xatarlarni baholash (risk assessment) sohasida kadrlar yetishmasligi kuzatiladi.

4. Aholida ekologik bilimlar yetarli emasligi. Sug'urta va ekologik mas'uliyat madaniyati hali to'liq shakllanmaganligi.

Shu bilan birga, mamlakatda yashil moliyalashtirish, karbon bozori va yashil sug'urta yo'nalishlari rivojlanib borayotgani ushbu sug'urta turini joriy qilish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston sharoitida polyutsiya sug'urtasini joriy qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks yondashuvlar zarur ekanligini ta'kidlash lozim:

1. Huquqiy asosni yaratish: "Ekologik javobgarlik to'g'risida" qonun loyihasi qabul qilinishi va unda polyutsiya sug'urtasi alohida modda sifatida kiritilishi lozim.

2. Institutsional mexanizmi shakllantirish: Davlat ekologiya qo'mitasi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamkorligida maxsus ekologik sug'urta fondi tashkil etilishi mumkin.

3. Axborot tizimini yaratish: Ifloslanish holatlari va zarar xajmini aniqlash uchun MRV (monitoring, reporting, verification–monitoring, hisobot berish, tekshirish) tizimini joriy qilish zarur.

4. Sug'urta bozorida rag'bat tizimini joriy etish: polyutsiya sug'urtasini amalga oshirayotgan kompaniyalarga soliq imtiyozlari berish, bank kreditlari uchun kafolat sifatida sug'urta polislaridan foydalanish imkoniyatini yaratish tavsiya etiladi. [4]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda polyutsiya sug'urtasi tizimini joriy qilish iqtisodiy va ekologik jihatdan zarur bo'lib, u quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

– Atrof–muhitni muhofaza qilish sohasidagi iqtisodiy javobgarlikni kuchaytiradi;

– Korxonalarni ekologik xavfsiz texnologiyalarga o'tishga rag'batlantiradi;

– Ekologik zararlarni davlat budjeti emas, balki bozor vositalari orqali qoplash imkonini beradi;

– Yashil iqtisodiyot va ESG (Environmental, Social, Governance) prinsiplarini amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Yuqoridagi tahlillar natijasida aniqlandiki, polyutsiya sug'urtasi atrof–muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy xavflarni moliyaviy jihatdan boshqarishda muhim o'rin tutadigan innovatsion sug'urta turidir. Bu sug'urta nafaqat ifloslanish

oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga, balki ekologik xatarlarni oldini olishga qaratilgan samarali moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH, Yaponiya, Germaniya va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarda polyutsiya sug'urtasi tizimi muvaffaqiyatli amal qilib kelmoqda. Ushbu davlatlardagi "Polluter Pays Principle" ("Ifloslantiruvchi to'laydi") tamoyili asosida ishlovchi huquqiy mexanizmlar korxonalarni atrof–muhit oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi va ularni xavfsiz texnologiyalardan foydalanishga rag'batlantiradi. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun ham bunday sug'urta turini joriy etish nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy barqarorlik nuqta nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda polyutsiya sug'urtasi tizimini joriy etishda qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Ular qatoriga:

– ekologik javobgarlik bo'yicha maxsus qonunchilik bazasining mavjud emasligi;

– ifloslanish holatlari bo'yicha ishonchli statistik va iqtisodiy ma'lumotlar yetishmasligi;

– sug'urta kompaniyalarida ekologik xatarlarni baholash bo'yicha malaka yetishmasligi;

– aholi va biznes subyektlarining ekologik ongi past darajada ekanligi kiradi. [5]

Biroq mavjud muammolar bilan birga, mamlakatda polyutsiya sug'urtasi tizimini joriy etish uchun yetarli iqtisodiy va institutsional asoslar mavjud. Xususan, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2019), "Atrof–muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, BMT va Jahon banki hamkorligida amalga oshirilayotgan yashil moliya va iqlim barqarorligi dasturlari ushbu sug'urta turini amaliyotga tatbiq etish uchun zarur asosni yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Huquqiy asosni yaratish: "Ekologik javobgarlik va polyutsiya sug'urtasi to'g'risida" alohida qonun qabul qilinishi lozim. Unda ifloslanish oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik, kompensatsiya va sug'urta to'lovlari mexanizmi aniq belgilanishi kerak.

2. Institutsional tizimni shakllantirish: Davlat ekologiya qo'mitasi huzurida maxsus "Ekologik sug'urta jamg'armasi" tashkil etilishi, u orqali korxonalarining polyutsiya sug'urtasi bo'yicha mablag'lari to'planishi mumkin.

3. Ekologik axborot tizimini yaratish: MRV (Monitoring, Reporting, Verification) tizimini joriy etish orqali ifloslanish holatlari va zarar ko'rsatkichlarini hisobga olish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

4. Sug'urta bozorida rag'bat choralari: Polyutsiya sug'urtasiga ixtisoslashgan kompaniyalarga soliq imtiyozlari va davlat grantlari taqdim etish, ekologik loyihalarni moliyalashtirishda ularga ustuvor huquq berish tavsiya etiladi.

Kadrlar salohiyatini oshirish: Ekologik xatarlarni baholay oladigan mutaxassislar tayyorlash, universitetlarda "yashil sug'urta" bo'yicha ixtisoslashgan fanlar joriy etish zarur. [6]

Shu tariqa, polyutsiya sug'urtasi tizimini O'zbekistonda joriy etish nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytirishga, balki mamlakatning ekologik barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu sug'urta turi "yashil iqtisodiyot", "ekologik javobgarlik", va "barqaror rivojlanish" strategiyalarining amaliy ifodasi bo'lib, milliy sug'urta bozorida yangi yo'nalish sifatida katta istiqbolga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston–2030" strategiyasini "Atrof–muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–16–son farmoni. <https://www.lex.uz/docs/7369703>
- Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha 2024–yil yakuni bo'yicha yillik hisobot. Yashil iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishni muvofiqlashtirish boshqarmasi Mualliflar: Shoxzod Islamov, Abdujalil Maxmudov, Toshkent 2025
- Stern, N, The Economics of Climate Change: The Stern Review. 2006
- Sharipov Sh., Axmedov N., "O'zbekistonda ESG tamoyillarini joriy etish istiqbollari". 2023.
- Qodirov I., "O'zbekistonda iqlim xavflarini sug'urtalashning huquqiy asoslari", 2024.
- Murtazayev A., "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro moliyaviy institutlarning o'rni", 2021.
- Rustam Azimov & Mirodil Mirsadikov. "Green Insurance in Uzbekistan – Current State, Challenges, and Development Prospects: A Theoretical Analysis". 8–th International Conference on Research in Business, Management and Finance. 16–18 may 2025. Rome, Italy.
- Соболев О.С. "Зеленное" страхование: учет экологических факторов в деятельности российских страховщиков. Вектор юридической науки 8/2022.
- Ермолаева А.С., Кулумбегова А.В. "Страхование экологических рисков ТЭК: опыт, проблемы и перспективы развития". Журнал "Страховое дело". 2021. № 1(334).
- The Global Risks Report 2020 // World Economic Forum. <https://www.weforum.org/reports/the-global-risks-report-2020>